

“IQTISODIYOT VA MENEJMENT” FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Xodjayeva Muhayyo O‘lmasovna

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti assistant

xodjayevamuxayyo98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limni rivojlantrishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada “Iqtisodiyot va menejment” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaming hamda pedagogik texnologiyalar asosida mashg‘ulot o‘tish jarayonida zamonaviy texnik vositalar, kompyuterlar, video kompyuterli multimediya komplekslarini qo‘llagan holda o‘tish kerakligi, bundan tashqari talabalarni mustaqil bilimlara ega bo‘lishini, olgan bilimlarini tahlil qilish, jamlashtirish borasida xulosa va takliflar ishlab chiqara olishlariga asoslangan.

Kalit so‘zlar: Menejer, iqtisod, menejment, reklama, biznesreja, ssuda, foyda, kredit, metod, texnika -texnologiya, usullar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim tamoyillari, metodik ishlanmalar.

Kirish. Har qanday yangi pedagogik texnologiya ta’limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslanadi. Faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, ta’lim jarayonining faol sub’ektlari o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirishni, mavzu (yoki fanlar asoslari) bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mukammal o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Shuningdek, o‘quvchilarining shaxsiy va o‘qituvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o‘quv materialini o‘zlashtirishga sharoit yaratish bilan bir qatorda, mashg‘ulot davomida o‘quvchilarining faolligi va fanga qiziquvchanligini rivojlantirib borish kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Bizga ma’lumki O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantrish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan ta’lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta’minlash kabi ustuvor vazifalari ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar innovatsion faoliyatini tashkil etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

“Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog‘liq”.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning 2-bosqichini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak bunda ta’limda yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish hamda ulardan oqilona foydalanish vazifasini qo‘ymoqda. Bu barcha pedagoglarning zimmasiga ulkan mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Demak biz avvalo “Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga javob topishimiz zarur. Mustaqillikdan keyin bu muammo ko‘plab olimlarning, hatto ota-onalarining diqqat-e’tiborida bo‘ldi. Lekin bu muammo bo‘yicha izlanishlar, ilmiy-tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmoqda. O‘qituvchilarga qulaylik yartilishi uchun zamonaviy, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan metodik va o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar yaratila boshlandi. Global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o‘qituvchisidan pedagogik mahoratni, o‘tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o‘z fanini chuqur bilishni va siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo‘lishni talab qiladi.

Buni amalga oshirish o‘qitishni takomillashtirish, o‘quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq qilish, hamda multimedya imkoniyatlaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish kabilalarini qo‘llash orqali bajariladi. Bunday texnologiya dars o‘tish jarayonida o‘quvchilarni o‘zlarini mustaqil ravishda fikrlash, erkin faoliyat yuritishga da’vat etadi.

“Texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog‘liq ravishda san’at, hunar va fan haqidagi ta’limotga muvofiq keladi. Demak bundan ko‘rinib turibdiki “Texnologiya” so‘zi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “texnos”- san’at, mahorat, “logos”- ta’limot degan ma’nolami bildiradi.

Pedagogik texnologiya atamasi esa ta’lim berish jarayoniga yangicha yondashuvga asoslanadi. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar deb ta’limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratish va dars jarayonida ulardan foydalanishga nisbatan aytildi. Pedagogik texnologiyalar bu ta’lim jarayonini tubdan islox etish, metod va usullar, texnika vositalari, o‘qitishning shakllarini ta’lim jarayoniga har bir talabani ruxiy o‘ziga xosligini inobatga olgan holda olib kirish demakdir.

Pedagogik texnologiya ta’limda o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish va bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishga erishish, o‘quvchilarining o‘z fikrini bayon etishga imkoniyat yaratishdir. Pedagogik texnologiya jarayonida dars o‘tishda eng asosiy talab

o‘quvchining hayotiy tajribasi, avval o‘zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko‘zda tutadi.

O‘qituvchining dars jarayonida turli pedagogik texnologiyalardan foydalanashi esa darsning sifatini, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Masalan "Guruqlar bilan ishslash", "Bahs - Munozara", "Klaster", "Aqliy hujum", "Blits-so’rov", "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Nilufar guli", "Baliq skeleti", "FSMU", "BBXB" kabi metodlar, hamda jadvallar bilan ishslash, mustaqil fikrni ifodalaydigan yozma mustaqil ishlar, kurs ishlarini yozish o‘quvchilar faolligini oshiradi. Bunday metodlar usullar asosida olib borilgan darslar o‘quvchiga vaqt tejamkorligi bilan birga, yangi bilimlarni yetkazib beradi.

Natijalar va muhokama: Demak har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Muslaqillikni mustahkamlashning strategik yo‘lida og‘ishmay davom etayolgan va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo‘liga kirib borayotgan mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish, unga rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda ta’limni tashkil etish, bu jarayonni puxta va samarali amalga oshirish ishlari bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Demak mamlakatimizda uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi esa komil inson va yetuk malakali har bir jabhada raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

Bizga ma’lumki insoniyat paydo bo‘lishi bilan, o‘sib-ulg‘ayishi, rivojlanishi, yashashi uchun zarur bo‘lgan ne’matlar ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liq, insonlar yashashi va mehnat qilishi uchun o‘z ehtiyojlarini qondirishlari zarur. Avvallari iqtisodiy faoliyat uy xo‘jaligidan iborat bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrga kelib u yirik xususiy, jamoa, hissadorlik jamiyatlari, davlat xo‘jaliklari, moliya-bank tizimi, turli xil xo‘jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, uyushmalar, qo‘shma korxonalar, davlatlararo munosabatlardan iborat.

Hozirgi vaqtida ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar: tabiiy boyliklar, pul mablag‘lari, ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi cheklangan. Ushbu cheklangan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanib, aholining to‘xtovsiz o‘sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish, resurslar va mahsulotlarni oqilona taqsimlash yo‘llarini topish iqtisodiyotning asosiy masalasidir. Ushbu talablarga javob berish uchun talaba “Iqtisodiyot va menejment” fani bo‘yicha chuqr bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Boshqa fanlar singari “Iqtisodiyot va menejment” fani ham o‘z predmeti, nazariyasi va izlanish uslullariga egadir. Predmet bu fan nima bilan shug‘ullanishi, uning qaysi sohaga tegishli ekanligini belgilasa, nazariya esa sohada ro‘y beradigan jarayon va hodisalarning ro‘y berish qonuniyatlarini aniqlaydi. Izlanish usullari

nazariyadan kelib chiqqan holda kishilar ilmiy va amaliy faoliyati qanday amalga oshishini o'rganishning turli vositalari va usullari tizimini ishlab chiqish lozim.

"Iqtisodiyot va menejment" fani talabalarga barcha turdag'i korxonalarining mohiyati va turlari, ularni iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati, tashqi va ichki omillari va ularni tahlil qilish yo'llari hamda respublikamizdagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari bundan tashqari sanoatni rivojlantirish, xususan, istiqbolini belgilash, hamda boshqaruv tizimini shakllantirishning maqsad va vazifalarini tanlash darajasini baholashda ushbu fan alohida o'rin tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Iqtisodiyot va menejment" kursining mazmun-mohiyati quyidagi mavzular orqali o'rganiladi:

- fanining predmeti va vazifalari;
- korxona – mustaqil xo'jalik yurituvchi bozor sub'ekti;
- korxonaning asosiy va aylanma fondlari va ishlab chiqarish quvvati;
- korxonaning innovatsion va investitsion faoliyati;
- korxona mehnat resurslari va mehnat haqi tizimi;
- mahsulot (ish, xizmat) tannarxi, foydasi va rentabelligi;
- korxonaning biznes-rejasi;
- menejmentning tashkiliy tuzilmalari;
- menejment usullari, rahbarlik va uning madaniyati;
- boshqaruv qarorini ishlab chiqish va qabul qilish bosqichlari;
- strategik rejallashtirish va uni amalga oshirish;
- ishlab chiqarish va xodimlarni boshqarish usullari;
- boshqaruvda vakolat, mas'uliyat, nazorat va samaradorlik.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, hozirgi kunda bilimlar juda ko'p bo'lib, ularni egallash zamon va makon talablari asosida tubdan o'zgarmoqda, nafaqat zamonaviy zarur bilimlar yig'indisida, balki yangi bilimlarni o'rganish uslublarida ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida shakllanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. O'quvchilarning olgan barcha bilimlari korxonalarining turli tarmoqlarida o'z ish faoliyatlarini samarali ravishda olib borishga qodir malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarining samaradorligini oshirishda ham aholini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash - xalq xo'jaligining eng muhim asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsion va investitsion faoliyatni amalga oshirish, samarali boshkaruvni amalga oshirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, xom ashyoni saqlash, bahoni shakllantirish, boshqaruv usullari hamda to'g'ri qarorlar qabul qilishga bog'liq. Barcha turdag'i korxona tashkilot mahsulotlari miqdorini ko'paytirish bilan birgalikda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, sanoatining barcha tarmoqlarini xom ashyolar bilan ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.M.Mirziyoev. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir-Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-22b
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017. –B.39.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y.
4. Azizzodajayeva N .N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (darslik). - T. 2006 y.
5. Ishmuxammedov P., Abdukodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. (o‘quv qo‘llanma). T., 2010.
6. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. Tuzuvchilar: D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.
7. Pedagogik texnologiyalar. Tuzuvchilar: Sh.S.Shodmonova va b. – T.: “Fan vatexnologiya”, 2011, 148-bet
8. Gulova, M.N. Innovatsion pedagogic texnologiyalar: darslik. DPT muassasalari uchun qo‘llanma / MN Gulova, 4-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan. – M .: IT akademiyasi, 2013 .– 208 b.
9. Selevko, G.K. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: darslik. nafaqa / G.K.Selevko. – M .: Xalq ta’limi, 1998 .– 256 b.
10. Sharifxo‘jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. Darslik.T.:O‘qituvchi. 2001
11. G‘ulomov S.S. Menejment asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: 2002
12. Maxmudov E.X. Isakov M.YU. “Korxona iqtisodiyoti” (O‘quv qo‘llanma) - T.:TDIU, 2006
13. Sh.N.Xayitov. Iqtisodiyot va menejment (darslik). Toshkent. 2020., 389 b.
14. Ashurova N.B., Atamuradov Sh.A. “Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti” (O‘quv qo‘llanma)-Navoiy: NDKI, 2019
15. БН Джуманов [Процесс и способы повышения активности учащихся в преподавании географии](#) // Вестник науки Том 3 4(49) 2022 Страницы 18-22
[www.Ziyo.net, www.Menejement.ru, www.referat.ru, www.stat.uz](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Wp3R0bQAAAQ&citation_for_view=Wp3R0bQAAAQ:UeHWp8X0CEICwww.Ziyo.net, www.Menejement.ru, www.referat.ru, www.stat.uz)
www.edu.uz